

## TARJIMA JARAYONIDA UCHRAYDIGAN LEKSIK VA GRAMMATIK MUAMMOLAR

**Abduraimova Maxliyo Sherali qizi**

*Termiz davlat universiteti*

*Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi talabasi*

**Aliboyeva Nigina Alisher qizi**

*Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada asarlar, maqol va matallarning ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasi va ularni tarjima qilishda uchraydigan leksik hamda grammatik nuqtai nazardan kitobxonning uni anglashi uchun ta'sir qiluvchi omillari shuningdek tarjima jarayonining o'ziga xos xususiyatlari hamda unda uchrovchi leksik, morfologik, grammatik muammolar va tarjima usullari haqida batafsil bayon qilindi. Asarlar va maqollar tarjimasida uchraydigan leksik va grammatik muammolari va ularga yechim sifatida turli xil misollar orqali tasniflab beramiz.*

**Kalit so'zlar:** *maqol, matallar, leksik, grammatik, morfologik, asar, tarjima qilish jarayonida uchraydigan muammolar.*

## LEXICAL AND GRAMMATICAL PROBLEMS THAT ENCOUNTERED DURING THE TRANSLATION PROCESS

**Annotation:** *This article analyzes the translation of works, proverbs and sayings from English to Uzbek and factors effecting the reader's understanding from the lexical and grammatical points of view found in their translation also, specific features of the translation process and lexical, morphological, grammatical problems and translation methods encountered in it. We classify the lexical and grammatical problems encountered in the translation of works and proverbs and their solutions through various examples.*

**Keywords:** *proverbs, sayings, lexical, grammatical, morphological, work, problems finding in the translation process.*

## ЛЕКСИЧЕСКИЕ И ГРАММАТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ, ВОЗНИКАЮЩИЕ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА

**В данной статье:** *рассматриваются переводы произведений, пословиц и поговорок с английского на узбекский язык и факторы, влияющие на читательское понимание с лексико-грамматической точки зрения, а также особенности процесса перевода и лексические, морфологические, грамматические проблемы. встречаются в ней, обсуждаются и подробно объясняются методы перевода. На различных примерах мы классифицируем лексико-грамматические проблемы, возникающие при переводе произведений и пословиц, и их решения.*

**Ключевые слова:** *пословицы, пословицы, лексические, грамматические, морфологические, произведения, проблемы, возникающие в процессе перевода.*

### KIRISH

Tarjima — bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima - millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Asl nusxani aks ettirish tarziga ko'ra tafsir, tabdil, sharh kabi ko'rinishlarga ham ega bo'lishi mumkin. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og'zaki turi hozirda ham saqlanib qolgan.

Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san'at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili — alohida „badiiy voqelik“ unsuridir. Tarjimada ana shu obrazli ifodaviy tildagi badiiy ma'noni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga o'tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi. Zamonaviy tarjima talablariga asosan tarjimon asliyatning san'at asari sifatida shakl va mazmun birligini qayta yaratishi, milliy va individual xususiyatlarini saqlashi lozim. Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, tarjimachilik an'analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini kengaytiradi

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYASI

Tarjimaning leksik muammolarini hal etishda ikki tilli lug'atlar ma'lum jihatdan ahamiyati katta hisoblanadi. Biroq odatda lug'atlarda so'z nia'nosining muqobillarigina beriladi. Tarjima lug'ati qanchalik mukammal bo'lmasin, unda so'zlarning barcha ma'nolari yoki ma'no nozikliklarini qamrab olishning iloji yo'q, chunki lug'at ikki til tizimi unsurlari bilan ish ko'radi. Tarjima uchun til tizimlari emas, balki nutq, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, nutq mahsuli bo'lmish matn muhimroqdir. Tarjima jarayonida tarjimon ko'p ma'noli so'zning qaysi ma'nosi qo'llanilganligini kontekst asosida o'zi aniqlamog'i lozim.

Tilning grammatik tuzilishi uning sistemasidagi umumiy muhim jixatdir. Affikslar, grammatik qo'shimchalar va so'z yasalishi, sintaktik modellar, so'z tartibi, yordamchi so'zlar va h.k. kabi tilning grammatik tuzilish elementlari grammatik yoki shakliy ma'noni, leksik ma'nolarning aniq shaklini ko'rsatishga xizmat qiladi. Tarjima qilish jarayonida bu ma'nolarni ifodalash muhim muammodir.

Turli xil tillarning grammatik shakllari juda kam hollarda ularning ma'no va vazifasiga mos keladi. Qoida sifatida faqatgina qisman ekvivalentlikka ega, bu esa grammatik ma'nolar grammatik shakllar orqali ifodalanishidir, shunga qaramasdan ikki til o'zaro o'xshashdek ko'rinadi, faqatgina ularning ma'nolaridagi ba'zi qismlari mos keladi va o'xshash ma'nolar o'zaro farq qiladi. Misol uchun: otlardagi son kategoriyasi ingliz tili, rus

tili, o'zbek tilida ham bir-biriga mos keladigandek ko'rinadi, aslida esa juda ko'p kelishik qo'shimchalarining qo'llanishida bir-biriga mos kelmaydi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Grammatik transformatsiyalar turli xil grammatik va leksik ko'rinishlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ba'zi hollarda ular bir-biriga juda yaqin bog'liq va leksik-grammatik xarakterga ega bo'ladi.

Tarjima qilishda grammatik transformatsiyadan keng foydalanishning sababi rus yoki o'zbek tilidagi gap ingliz tilining grammatik tuzilishi bilan mos kelmasligida deb izohlanadi: gapda so'z tartibi gaplarning joylashuv tartibidagi farq bosh gap va ergash gap tartibidagi farqdir.

Tarjimada biror bir so'z turkumi boshqa bir so'z turkumi bilan o'zgartirilishi mumkin. Bu to'liq yoki qisman transformatsiyalarga bog'liqdir. Tarjima qilishda sifat, ot, fe'l va ravish bilan almashinishi mumkin. Amerika xayotidan: White schools - schools for white oq tanlilar uchun maktablar; white churches — churches for white.

Juda yaqin bog'liq va leksik-grammatik xarakterga ega bo'ladi.

Tarjima qilishda grammatik transformatsiyadan keng foydalanishning sababi rus yoki o'zbek tilidagi gap ingliz tilining grammatik tuzilishi bilan mos kelmasligida deb izohlanadi: gapda so'z tartibi gaplarning joylashuv tartibidagi farq bosh gap va ergash gap tartibidagi farqdir.

Tarjimada biror bir so'z turkumi boshqa bir so'z turkumi bilan o'zgartirilishi mumkin. Bu to'liq yoki qisman transformatsiyalarga bog'liqdir. Tarjima qilishda sifat, ot, fe'l va ravish bilan almashinishi mumkin. Amerika xayotidan: White schools - schools for white - oq tanlilar uchun maktablar; white churches — churches for white.

Tarjima qilishda sifatlar ko'p hollarda ravishlar bilan o'zgartiriladi. Bu grammatik transformatsiyaning badiiy asar va publitsistika (ijtimoiy-siyosiy masalalarga oid adabiyot)da epitet (sifatlash) xodisaning mavjudligiga bog'liqdir. Misol uchun: Lord Nesby stretched a careless hand. - Лорд Несби небрежно протянул руку. - Lord Nesbi istar-istamay qo'lini cho'zdi.

Ba'zan, ingliz tilidagi ravish so'z turkumi boshqa bir so'z turkumi bilan o'zgarishi sodir bo'ladi. Misol uchun:

The accusation has been disproved editorially. — Обвинение было опровергнуто в передовой статье. - Aybdorlik gazeta maqolasida oqlandi.

Ingliz tilida gapda so'z tartibida dastlab bosh bo'laklar: ega va kesim, so'ngra esa 2-darajali bo'laklari keladi. Rus tilining akademik (oliy) grammatikasida gapda so'z tartibi quyidagicha ko'rsatilgan: hol, kesim, ega; ingliz tilida buning aksi qabul qilingan. Misol uchun: Yesterday's deal was considered in court. Xabarning boshi gapning oxirida bo'lishi lozim. Rus tilidagi gapda so'z tartibi turlicha bo'lishi mumkin.

Deal was considered in court yesterday. Berilgan gapning markazidagi "deal" (gapning egasi) gapning boshida bo'lishi lozim.

Xulosa: Tarjima jarayonida turli leksik, stilistik, grammatik muammolarga uchramaslik uchramaslik uchun matnni soʻzma soʻz tarjima qilmay, balki asl matnning maʼnosiga yoki gapning konteksiga qarab tarjima qilishimiz kerak. Soʻzma-soʻz tarjima qilish jarayonida juda koʻplab leksik, Grammatik, stilistik kabi muammolarga duch kelganligimiz sababli tarjima jarayonida soʻzma-soʻz tarjima usulidan foydalanilmaydi. Asliyatdagi matnning mazmunidan kelib chiqqan holatda oʻzbek va boshqa tillarga tarjima qilinadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ALIBOYEVA, NIGINA ALISHER QIZI. "APPROACHES TO THE ANALYSIS OF LITERARY TEXT TRANSLATION IN MODERN TRANSLATION STUDIES." THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука 7 (2022): 140-144.

2. Aliboyeva, Nigina Alisher Qizi. "The direct translation of roald dahl's novel "matilda" into Uzbek language." Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12.9 (2022): 77-80.

3. Aliboyeva, Nigina. "SELECTION OF SPECIAL TRANSLATION METHODS FOR ADEQUATE INTERPRETATION OF CHILDREN'S LITERATURE." Scientific Collection «InterConf» 120 (2022): 121-124.

4. Javliyev, M. O. O. G. L. (2021). "ONA VATAN" KONSEPTINI O'RGANISHDA MAQOL-MATALLAR VA HIKMATLI SO'ZLARNING O'RNI, ULARNING MILLIY-MADANIY KONSEPTUAL BELGILARI. Academic research in educational sciences, 2(11), 716-722.

5. Mr.Javliyev, [14.12.2023 10:01]

Javliyev, M. O. O. G. L. (2022). "ONA VATAN" KONSEPTINING AFORIZMLAR VA MATNLAR YORDAMIDA TURLI TILLARDA IFODALANISHI. Academic research in educational sciences, 3(11), 514-519.

6. Odil o'g'li, J. M. (2023). VERBALIZATION OF" MOTHERLAND" CONCEPT BY MEANS OF LEXICAL AND PHRASEOLOGICAL UNITS.

7. Javliyev, M. (2022). «Ona Vatan» konseptining turli vositalar va tushunchalar yordamida talqin qilinishi. Scientific Collection «InterConf», (135), 206-210.